

## Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026- yil yanvar-aprel oyi uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-aprel oyida, Buxoro viloyatida jami 5 865,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 125,6 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>5 865,5</b>	<b>125,6</b>
Buxoro sh.	962,1	105,3
Kogon sh.	115,1	126,7
Olot tumani	450,5	2,2 m.
Buxoro tumani	228,7	101,5
Vobkent tumani	129,5	126,0
G'ijduvon tumani	243,7	107,5
Kogon tumani	263,2	103,9
Qorako'l tumani	381,4	188,5
Qorovulbozor tumani	534,6	2,9 m.
Peshku tumani	228,1	106,8
Romitan tumani	321,0	100,9
Jondor tumani	208,7	101,6
Shofirkon tumani	273,0	113,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:  
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)  
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026- yilning yanvar-aprel oyida Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 65,9 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 138,7 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 27,3 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 113,4 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,8 % ulushni va 2025- yilning mos davriga nisbatan 84,4 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 001,2	261,2	150,8
o'sish sur'ati, %	7,4 m.	94,9	96,0
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	857,5	1 340,8	248,3
o'sish sur'ati, %	97,1	117,9	78,7
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2 005,7	-	-
o'sish sur'ati, %	113,5	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:  
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)  
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)  
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)  
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)  
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi (yillik)

**III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati**




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026- yilning yanvar-aprel oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 413,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 2,5 m. ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 16,7 % ga ko'payib, 24,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 41,7 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni tashkil etgan holda 2 446,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 34,2 % ni yoki 2 005,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 113,5 % ni tashkil etdi.

**Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari**



**Hududlar kesimida korxonalar turlari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 413,2</b>	<b>2 446,6</b>	<b>2 005,7</b>	<b>2,5 m.</b>	<b>104,7</b>	<b>113,6</b>
Buxoro sh.	128,8	670,4	162,9	109,0	104,5	105,4
Kogon sh.	3,7	90,8	20,6	26,3	158,0	106,2
Olot tumani	330,8	76,4	43,3	35,3 m.	50,3	103,9
Buxoro tumani	14,1	143,5	71,1	179,7	93,7	110,6
Vobkent tumani	9,2	81,1	39,2	131,3	136,5	107,7
G'ijduvon tumani	18,3	148,1	77,3	75,1	115,8	103,7
Kogon tumani	10,3	195,5	57,4	34,9	114,4	108,4
Qorako'l tumani	250,8	89,1	41,5	8,3 m.	66,4	109,2
Qorovulbozor tumani	482,3	44,6	7,7	3,4 m.	132,2	112,5
Peshku tumani	4,0	154,5	69,6	73,6	105,7	112,3
Romitan tumani	35,7	209,3	76,0	39,0	133,1	110,0
Jondor tumani	6,5	155,4	46,8	67,1	102,1	107,8
Shofirkon tumani	25,8	201,1	46,1	173,2	109,1	108,8

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Olot tumanida (35,3 m.), Qorako'l tumanida (8,3 m.) va Qorovulbozor tumanida (2025- yilning mos davriga nisbatan 3,4 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari kogon shahrida (2025- yilning mos davriga nisbatan 158,0 %), Vobkent tumanida (133,1 %) va Romitan tumanida (133,1 %) kuzatildi.

#### **IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;



- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;  
f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**

Sh. Xodjaev  
65 223-81-99 (8020)

**Manzil:**

200100, Buxoro sh.,  
Gazli shoh ko'chasi, 32-uy

---